


**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI
2023-yil yanvar-noyabr
(dastlabki ma'lumot)**



Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2023-yil yanvar-noyabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7242,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 87,9 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish – 33,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 171,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




yanvar-noyabr


yanvar-noyabr

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	255,1	306,7	51,6
Neft, ming t.	78,1	72,8	-5,2




Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	20,1	21,2	1,1
Chaqiq tosh, ming t.	58,5	13,7	-44,8

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. soʻm

yanvar-noyabr

FHI,% da



2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6368,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,9 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-noyabr

88,0 %

2023-yil yanvar-noyabr

87,9 %


Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022-yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,4 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,4 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 24,9% (23,4 %) va quyi texnologiyalisi – 62,3 % (63,6 %)ni tashkil etdi.









Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 43,6 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,9 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi 12,0 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,0 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,2 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,8 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi – 4,8 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 58,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 152,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 18,9 ming tonna paxta tolasi (2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 39,3 % ga ko'p), 6,7 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (13,6 % ga kam), 3,1 ming tonna lint (45,7 % ga ko'p), 49,0 ming tonna neft bitumi (13,6 % ga kam) ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	13,6	18,9	5,3
Paxta tiviti (lint), ming t.	2,1	3,1	1,0
Neft bitumi, ming t.	56,6	49,0	-7,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	94,9	31,7	-63,2
Saryog', t.	1,1	0,2	-0,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,1	2,0	-0,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 40,8 bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa, 106,1 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 58,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 162,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 130,0 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 866,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 83,4 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 1063,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 130,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 43,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 40,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 102,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 115,9 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2867,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 66,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %, fizik hajm indeksi 97,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 289,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 91,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 66,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi 58,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 351,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 117,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 198,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 89,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 551,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,6 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 % ga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	230,7	425,3	194,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	30,9	21,1	-9,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 150,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	4,3	7,7	3,4
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	26,9	32,1	5,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 55,5 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 7,7 mlrd. so'm shuningdek, 32,1 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2186,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-noyabr

47,1 %

2023-yil
yanvar-noyabr

35,9 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-noyabr

52,9 %

2023-yil
yanvar-noyabr

64,1 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo ulushi 0,5 % (2022-yil yanvar-noyabr oylarida 0,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 17,8 % ni, 14,1 % Denov tumaniga to'g'ri kelib Sho'rchi 12,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (101,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (275,0 %), Bandixon (164,6 %) va Angor (119,4 %) tumanlarida qayd etildi.